

**O'ZBEKISTON BADIY AKADEMIYASI  
KAMOLIDDIN BEHZOD NOMIDAGI  
MILLIY RASSOMCHILIK VA DIZAYN INSTITUTI  
TASVIRIY SAN'AT FAKULTETI  
“MINIATYURA VA KITOB GRAFIKASI” KAFEDRASI**

“Himoyaga ruxsat etilsin”  
Tasviriy san'at fakulteti dekani  
\_\_\_\_\_  
A.A.Yusupov  
«\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2018 yil

5151000-Grafika (xattotlik va miniatyura) bakalavr ta'lif yo'naliishing  
Kunduzgi bo'lim 010-14 – guruh talabasi

**MAXMADIYAROVA MUAZZAM MAXMUD QIZIning  
ALISHER NAVOIY „XAMSA” DOSTONLARIGA KOMPOZITSIYA  
BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

Ilmiy rahbar: “Miniatyura va kitob  
grafikasi” Kafedrasi dotsenti  
\_\_\_\_\_  
Sabirov M.M  
«\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2018 yil

“ Himoyaga tavsiya etilsin ”  
“Miniatyura va kitob grafikasi”  
Kafedrasi mudiri  
\_\_\_\_\_  
J.H.Rashidov  
«\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2018 yil

Mazkur malakaviy bitiruv ishi “Miniatyura va kitob grafikasi “ kafedrasining 20\_\_yil \_\_\_\_\_dagi №\_\_\_\_ sonli va Tasviriy san’at fakulteti kengashining 20\_\_yil \_\_\_\_\_dagi №\_\_\_\_\_ majlisida muhokama etilgan va himoyaga tavsiya etilgan.

**Taqrizchi:** Ch.H.G`aniyeva.

Muzeyshunoslik kafedrasи katta o`qituvchisi

Bitiruv malakaviy ishi himoyasi 2018-yil \_\_\_\_\_ iyun soat \_\_\_\_\_da Kamoliddin Behzod nomidagi milliy rassomlik va dizayn institutida o’tkaziladi.

Institut manzili: Toshkent shahri, Mirobod tumani, Mironshoh ko’chasi 123-uy

## **MUNDARIJA**

<b>KIRISH.....</b>	4
<b>ASOSIY QISIM</b>	
<b>I bob. Sharq miniatyura san'ati xususida.....</b>	8
1.1.Markaziy Osiyo miniatyura san'ati haqida.....	8
1.2.Miniatyura san'ati haqida ma'lumot.....	13
1.3.Alisher Navoiy rahnamoligidagi mo'jaz san'at to'g'risida.....	14
<b>II bob. Alisher Navoiy hayoti va uning ijodiyoti.....</b>	16
2.1. Navoiy mavzusida ijod qilgan rassomlar.....	20
2.2.Navoiy „Xamsa” siga bag'ishlangan mavzuning tanlanishi.....	22
<b>III bob. Bitiruv himoya ishining amaliy jarayoni.....</b>	23
3.1.Qalamda va rangda eskiz.....	23
3.2.Material tanlash va uni tayyorlash.....	23
3.3.Bitiruv himoya ishining haqiqiy jarayonini bashlash va uni yakunlash.....	24
<b>XULOSA.....</b>	29
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI .....</b>	31
<b>ATAMALAR-GLOSSARY.....</b>	32
<b>ILLYUSTRATSIYALAR.....</b>	34

## KIRISH

Mustaqillik yillaridan buyon respublikamizda yosh avlod kamoloti, uning ma’naviyati va tarbiyasiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Shu jarayonlarda san’at sohasida ham turli imkoniyatlar tobora ko’payib bormoqda. Bugungi kunda miniatyura san’ati ham o’zining yangi bosqichiga ko’tarilgan. Bu san’at turining o’ta nozikligi, g’oyalarning ezgulikka yo’nalganligi bilan hamda bezirim jilokor naqshlar ishlatalishi tomoshabinda miniatyuraga qiziqish uyg’otadi. Mamlakatimizda mustaqillik yillarida badiiy ijodning boshqa turlari qatori tasviriy san’at sohasi rivojiga ham alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu borada, ayniqsa, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997-yil 23-yanvarda imzolangan “O’zbekiston Badiiy akademiyasini tashkil etish haqida”gi farmoni, O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 11-martda qabul qilingan shu yo‘nalishdagi qarori muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Mazkur tarixiy hujjatlarda belgilab berilgan vazifalar asosida

Badiiy akademiya tomonidan o’tgan yigirma yil mobaynida tasviriy san’at sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirish, rassomlar faoliyatini muvofiqlashtirish, ularning huquqlarini himoya qilish, moddiy va ma’naviy manfaatlarini ro‘yobga chiqarish, yosh rassomlarni tarbiyalash borasida ko‘p ishlar qilindi. Bu haqda so‘z borganda, Badiiy akademiya tarkibida tasviriy san’at sohasi bo‘yicha milliy ta’limning ko‘p bosqichli tizimi shakllantirilgani, “San’at” jurnali tashkil etilib, u 1998-yildan buyon uch tilda – o‘zbek, rus, ingliz tillarida chop etilayotgani, boy badiiy merosimiz va zamonaviy tasviriy san’atimizning rivojlanish tendensiyalarini o‘rganishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarning moddiy, ilmiy-uslubiy bazasi mustahkamlanganini ta’kidlash lozim. Shu bilan birga, xalqaro hamkorlik doirasida xorijiy madaniyat va san’at arboblari bilan uchrashuv va muloqotlar o‘tkazish bo‘yicha o‘ziga xos tizim shakllangani, mamlakatimizning ko‘plab rassomlari xalqaro anjuman va ko‘rgazmalar, festival va tanlovlarda qatnashib, nufuzli o‘rinlarni qo‘lga kiritayotgani, o‘nlab ijodkorlar davlatimizning yuksak mukofotlariga sazovor bo‘lgani ham Badiiy akademiya faoliyati bilan bevosita bog‘liq.

Ayni vaqtda hozirgi jadal sur'atlar bilan rivojlanayotgan davrning o‘zi tasviriy san’at sohasini yanada taraqqiy ettirish, uning bugungi kundagi o‘rni va mavqeini oshirish,

O‘zbekiston Badiiy akademiyasi faoliyatini takomillashtirishni talab etayotganini e’tirof etish lozim. Ayniqsa, tasviriy san’at ijodkorlarining imkoniyat va salohiyatini to‘laqonli yuzaga chiqarish, rangtasvir va amaliy san’at asarlarining yuksak sifatini ta’minalash borasida keyingi paytlarda dolzarb muammolar to‘planib qolgani, jumladan, sohaga doir normativ-huquqiy hujjatlarning bugungi kun talablariga javob bermasligi, mavjud moddiy-texnik bazaning nochorligi, malakali kadrlar yetishmasligi, xalqaro ijodiy va ilmiy aloqalarni rivojlantirish hamda ijodkorlarni har tomonlama rag‘batlantirish va iste’dodli yoshlarning ijodiy imkoniyatlarini kengaytirishda yuzaga kelayotgan sustkashliklar mazkur sohaga davlatimiz tomonidan e’tiborni kuchaytirishni taqozo etmoqda. Ma’lumki, 2017 yil 3-avgust kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ijodkor ziyorilar vakillari bilan uchrashuvda taraqqiyotimizning hozirgi bosqichida madaniyat, adabiyot va san’at sohasini, jumladan, tasviriy san’at yo‘nalishini rivojlantirish borasidagi dolzarb vazifalarni belgilab, ularni hal etish yo‘llarini ko‘rsatib berdi. O‘tgan qisqa muddatda ana shu taklif va tashabbuslarni amalga oshirish bo‘yicha davlatimiz rahbari tomonidan 10 ga yaqin farmon va qarorlar qabul qilindi.

“O‘zbekiston Badiiy akademiyasi faoliyatini rivojlantirish va yanada takomillashtirishga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qaror shu yo‘nalishdagi yana bir muhim hujjat bo‘ldi.<sup>1</sup> Qarorda xalqimizni tasviriy san’at namunalaridan bahramand etish va dizayn yo‘nalishida faoliyat olib borayotgan mutaxassislarning ijodiy imkoniyatlaridan unumli foydalanish, ular uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, san’at asarlarida milliy va umuminsoniy an’analarni yuksak darajada ifoda etishga erishish, yurtimizda o‘tkazilayotgan ko‘rgazmalarning badiiy saviyasini oshirish, rassomlik va dizayn sohasiga ixtisoslashgan ta’lim tizimini bugungi kun talablaridan kelib chiqqan holda takomillashtirish borasida muhim

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ 3219 sonli “O‘zbekiston Badiiy akademiyasi faoliyatini rivojlantirish va yanada takomillashtirishga doir qo‘srimcha chora- tadbirlar to‘g‘risida” gi qarori.

vazifalar belgilandi. Shuningdek, jahon miqyosida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan o‘zbek tasviriy va amaliy san’ati mакtablarining an’analarini saqlash va davom ettirish, zamonaviy dizayn yo‘nalishlari bo‘yicha faoliyat yuritayotgan iste’dodli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash hamda O‘zbekiston Badiiy akademiyasining faoliyatini rivojlantirish va takomillashtirish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Qarorga muvofiq O‘zbekiston Badiiy akademiyasi hamda uning Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘limining yangilangan tashkiliy tuzilmasi tasdiqlandi. Yana bir muhim jihat shundaki, mazkur qaror asosida O‘zbekiston Badiiy akademiyasi faoliyatini rivojlantirish va yanada takomillashtirish bo‘yicha 2017-2021-yillarga mo‘ljallangan chora-tadbirlar dasturi va mazkur dasturni amalga oshirish bo‘yicha Respublika komissiyasi tarkibi tasdiqlandi. Qarorda mamlakatimiz madaniy hayoti uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan bir qancha masalalarga alohida e’tibor berilgan.

**Tadqiqot mavzusining dolzarblii.** Tasviriy san’atning miniatyura yo‘nalishidagi asarlar yaratish orqali biz xalqimiz orasida nafis san’at turiga qiziqish uyg’otamiz va tomoshabinlar ongida miniatyura san’ati haqida tushunchalar paydo qilamiz. Navoiy „Xamsa”siga bag’ishlangan asarlar talaygina bo‘lsada, ammo Navoiy ijodi go’yo bir ummon ekanligini unutmasligimiz lozim. „Xamsa” mavzusida asar yaratish orqali yoshlarda Navoiy ijodiga, faoliyatiga bo‘lgan qiziqishni yanada rivojlantiramiz.

**Ijodiy va ilmiy izlanishning maqsadi:** Ilmiy izlanish orqali Sharq va Markaziy Osiyo miniatyurasi tarixini o’rganish;

Navoiy ijodi va faoliyatini chuqurroq va teran anglash;

„Xamsa”ning har bir dostoniga bag’ishlab bittadan illyustratsiya yaratish;

Navoiy asarlariga ishlangan mo’jaz san’at namunalari haqida ma’lumot berish.

**Ijodiy va ilmiy izlanishning vazifalari:** Bitiruv malakaviy ishini yaratishda asosiy vazifalar oldingi ijodkor rassomlar ijodini kuzatish, tahlil qilish orqali belgilandi: rangtasvida kompozitsion ijodiy yangicha asarni yaratish.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi.** Ilmiy-ijodiy ishda Navoiy shaxsini yanada mukammal o’rganishga e’tibor qaratildi. Shuningdek ilmiy izlanishda tarixiylik vahaqqoniylik asos qilib olindi. Ijodiy ishda badiiy yechim, miniatyura san’ati an’analaridan uzoqlashmagan holda, mo’jaz san’atning nodir namunalari va hozirgi davr rassomlari asarlaridan unumli foydalanildi. Ijodiy ish lokli miniatyura bo’lib u beshta pannoni tashkil qiladi. Xuddi „Xamsa” dostonlari beshta bo’lgani kabi.

**Tadqiqotning predmeti va obyekti.** Ustoz ijodkorlar miniatyura ishlarini o’rganib, „Xamsa” mavzusida ijodiy izlanish olib borib, yangilikka intilib-tomoshabinga ushbu ijodiy ishlarni yetkazish. Kompozitsiyaning tub va mukammal darajasiga yetib boorish va unda voqelikni namoyon etish.

**Bitiruv malakaviy ishning amaliy ahamiyati:** Miniatyura san’atini o’rganish orqali bu sohaning o’ziga xos tomonlarini bilib olish mumkin. Sohaning nozik chiziqlari mukammal darajadagi siyoh qalam ishlatish yo’llari, ranglarning tiniqligini o’rganish har bir amaliy ijrochi uchun muhim hisoblanadi. Kompozitsiyalar muayyan murakkablikka ega ijrochidan mahorat talab etadi. Amaliy jarayonlarda sabr muhim hisoblanadi va o’ta nafislikka intilish ahamiyatlidir.

**Bitiruv malakaviy ishning tarkibiy qismi:** Kirish, Asosiy qism, 3 bob, 8 bo’lim, Xulosa, Atamalar, Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati, Illyustratsiyalar

## ASOSIY QISM

### **I BOB. Sharq miniatyura san'ati xususida**

Sharq xalqlari madaniyati tarixida miniatyura san'ati alohida ahamiyatlidir. O'tmishdagi qo'lyozma va kitoblarning har jihatdan mazmun va xarakterga boy bo'lishi uchun saxonflar, muqovasozlar(sahifalarni to'plab kitob holiga keltiruvchi), tasvir beruvchilar(kitob mazmuni bilan bog'lab surat chizish, suratlash) san'atkorona mehnat qilishgan. Albatta har bir san'at ustasi rassomona ijod qilgan, shuning uchun ham ular yaratgan har bir bezak, tasvir go'zallikni ezgulikni o'zida mujassamlashtiradi. Qo'lyozma kitoblardagi naqshlarda tabiatning bag'ridan gul va daraxtlarni unib chiqqan holatini tasvirlashga, o'sha davr ruhini ko'rsatib berishga intilganlar.Sharq masnaviyatlari, dostonlari, solnomalari Sharq miniatyurasida jonli ifoda etilgan. <sup>2</sup>Sharq miniatyurasi bilan tanishuv faqat go'zallik bilan yuzma-yuz kelish emas balki, Sharqning bugungi san'ati sarchashmalarini ham idrok etish zaruriyatidir. Sharq miniatyurasi o'rta asr qo'lyozma kitob san'ati shoh asarlarida o'z ifodasini topgan tasvirning uzviy sintezi tarzida jahon madaniyati xazinasiga qo'shilgan bebafo hissadir.

#### **1.1. Markaziy Osiyo miniatyura san'ati haqida**

Miniatyura san'artining eng katta va o'ziga xos taraqqiy etgan davri bu asosan Temuriylar davri hisoblanadi. Bu davr san'atining serqirraligi shundaki, ko'pgina xalqlar o'rtasida shakllangan tasviriy san'at maktablari markazlashgan bir qiyofasini aynan shu Temuriylar davrida topadi.

XIV – XV asrlarga kelib qo'lyozma kitoblarning qayta ko'chirilishi natijasida ko'plab tasviriy san'at namunalari yuzaga keladi va ular kitobat san'atini yanada boyitadi.. Bu asrlarda asosan shoh, saroylardagi hayotiy voqyealar tasvirlab beriladi.

Umuman Sohibqiron Amir Temur o'z davrida Samarqandni ulkan madaniyat markaziga aylantirgan edi. O'sha zamonalarga oid nafis miniatyura rasmlarning

---

<sup>2</sup> Sharq miniatyurasi va adabiyoti. Inson obrazining tadriji. E.A.Polyakova, Z.I.Rahimova, Toshkent 1987 G'ofur G'ulom nomidagi "Adabiyot va san'at" nashriyoti

katta qismi Parij, Myunxen, London, AQSh ning ko'pgina shaharlarida, Santk-Peterburg, Moskov, Tehron, Qohira, Afg'oniston, Hindiston, Mo'g'ulistonidagi muzeylarda saqlanmoqda. Amir Temur davrida ijod etgan tasviriy san'at ustalaridan mashhur ustod Gung taxminlarga qaraganda monuviylik tariqati vakillaridan ta'lif olgan bo'lishi mumkin.

Ustod Gung Temur davri tasviriy san'at matabining asoschisi bo'lgan. Amir Temurning o'zi yashagan davrdagi musavvirlaridan Buxorolik ustod Jahongir, bag'dodlik Abdulhay va ustod Shamsiddin, tabrizlik Pir Said Ahmad, Samarqandlik Ahmad Bog'ishamoliy, Shoh Muhammad Tamimiyy va boshqa tasviriy san'at vakillarining Samarqanddagi ijodiy faoliyatini qayd qilish mumkin. Temur faoliyatidan so'ng esa Samarqandda Mirzo Ulug'bek davrida tasviriy san'at yanada rivojlandi. Temuriylar davri nafis tasviriy san'ati haqida o'zlarining «miniatyura tarixidan lavhalar» kitobida N. Norqulov, I.Nizomiddinovlar shunday hikoya qilishadi: «Devorga surat chizish san'ati Mirzo Ulug'bek zamonida yanada yuqori pog'onaga ko'tarildi. Tarixnavislar uning Chilsutun chorbog'ida Chinixona qasrini nihoyatda go'zal qilib qudirganini yozadilar. Abdurazzoq Samarqandiy Mirzo Ulug'bek rasadxonasining xonalari devorlarida to'qqiz osmonning ko'rinishi, osmon gumbazalari darajalari, minut va sekundlar va hakozo ulushlari tasviriy yetti yoritqich sayyora, sobita yulduzlar, iqlimlar, tog' dengiz sahro va shularga oid buyum va jonivorlar surati g'oyat nafis va jonli naqsh etilganini yozadi». Shunday qilib, Temuriylar zamonasida sharqona miniatyura san'atini bir qancha maktablari va uning buyuk ijodkorlari yuzaga keldi. Natijada temuriylar davrda shakllangan nafis tasviriy san'atning dovrug'i jahonga yoyiladi.<sup>3</sup> O'tmish tasviriy san'ati haqida fikr yuritar yekanmiz bugungi kunda ko'p qo'llanilayotgan minityura so'zining o'ziga qisman to'xtalish lozim. Bu ibora deyarli XIX asr boshlarigacha ishlatilmagan. «Miniatyura» - kitobga ishlagan surat (mo'jaz surat) yoki kichik hajmdagi nafis tasvirlarga nisbatan ishlatilishi an'anaga aylanib qoldi.

---

3 P.P.Shabararov. Miniatyura. T. "Iqtisod – moliya" nashriyoti 2011

Sharq jumladan Markaziy Osiyo xalqlarining tasviry san'atidagi miniatyura ham o'ziga xos namunalariga ega. Bu borada tasviriy san'atimiz tarixida o'zining noyob namunalari va ajoyib san'at vakillarini yuzaga keltirgan Hirot «Nigoriston» (nafis san'at akademiyasi) maktabi jahon tasviriy san'ati maktablari ichida oldingi saflarda turadi. Aynan shu maktabda Kamoliddin Behzoddek buyuk rassom kamolga yetgan. Bu maktabning mohiyati va mazmunini aniqroq tushunish uchun uning ma'anosini tahlil qilmog'imiz kerak. «Nigoriston» iborasiga kelganda aytish lozimki, bu nigorlar, chehralar, qiyofalar demakdir.

Samarqandda shakllangan tasviriy san'at maktabi Hirot orqali jahon xalqlari madaniyatiga ta'sir o'tkazganini alohida qayd etmoq kerak. Olim Naim Norqulovning ma'lumot berishicha, Boysunqur Mirzo Hirot nafis va tasviriy san'ati anjumani (akademiyasi) ni tuzgan. Nomlari jahon tasviriy san'ati tarixida muhim o'rinnegi yegallangan Xo'ja G'iyosiddin Haraviy, Amrshohiy Sabzavoriy, Mirak Naqqosh, Halil Mirzo Shohruhiy, Sulton Ibrohim, Sultonali Mashhadiy, Mavlona Ja'far Turbatiy Hirot akademiyasi tashkilotchilari yedilar.

Boysunqur Mirzo Hirotda nafis san'at maktabini yaratishda butun Sharq halqlari madaniyati durdonalaridan foydalaniladi. Bu ishda unga otasi Shohruhning qo'shni mamlakatlar bilan keng ko'lamda olib borgan savdo, diplomatik va madaniy aloqalari katta yordam berdi. Bu maktab Nigorsiton nomi bilan ham mashhur bo'ldi.

Hirotda shakllangan nufuzli san'at maktabida Kamoliddin Behzod o'nlab musavvirlarga ustozlik qildi. Umuman, Behzod ijodining olamshumulligi shundaki, u o'lmas maktab yarata oldi. Uning ijodidan ilhomlangan Qosim Ali, Sulton Muhammad, Muzafar Ali, Yusuf Mullo, Rustam Ali, Mirsaid Ali, Mahmud Muzahhib, Abdullo kabi ko'pgina musavvirlar miniatyura san'ati va kitobat san'ati ravnaqi uchun xizmat qildilar.

Xullas, buyuk musavvir ijodida shunday nuqtalar borki, ularni kuzatib san'at asarlari faqat tashqi dunyoni bilish uchungina yaratilmasligini uqasiz. Bu asarlar odamlarda his –tuyg'u qo'zg'atadi. Zamonaga, davr tartibotlariga nisbatan

munosabatni shakllantiradi. Behzod va uning ilg'or zamondoshlari ijodida dunyoviy mavzu yetakchi hisoblangan. Bu maktab ijodkorlari islomdan avvaligi davrlarga ham nazar tashlay olganlar. Shundan ilhomlanib, ular o'z zamonlari mafkuralariga zidroq bo'lsa - da, dadil faoliyat olib borganlar.

Sharq xalqlari madaniyati tarixida miniatyura va kitobat san'atini ayri tasavvur qilish mumkin emas. Qo'lyozma kitoblardagi naqshlarda tabiat bag'ridagi gul va daraxtlar va boshqa turli mavjudotlarning rangi, shakli o'z aksini jamlashtirganini ko'ramiz. Navoiy davrida Hirotda xattotlik san'ati namoyandalari Mir Ali Tabriziy, Sulton Ali Mashhadiy, uning shogirdlari Muhammad bin Nur, Darvesh Muhammad Toqiy, Sulton Muhammad xandon, Darvesh Muhammad Samarcandiy, Abdujamil kabilar faoliyat kursatishgan. Bular orasida Sulton ul-xattoton, Qiblat ul-kuttab nomini olgan Sulton Ali Mashhadiy alohida o'rinni egallaydi. Alisher Navoiy qo'lyozma kitoblariga ishlangan suratlarda shoirning ma'naviy qiyofasi o'z aksini to`la-to`kis topganini kuramiz.

Albatta, bu o'rinda, Navoiy portreti qaysi rassomlar tomonidan yaratilganligi ham katta ahamiyatga ega. O'zbek she'riyatining sultoni Alisher Navoiy obrazini Kamoliddin Behzoddan tashqari Maxmud Muzahhib tasvirda yaratgan.

Mahmud Muzahhib XV—XVI asrlarda Hirotda yashab ijod etgan. Miniatyura san'ati ustasi Maxmud Muzahhib asli Hirotda Kamoliddin Behzodqo'lida ta'lim olgan. O'z o'rnida Buxoro miniatyura maktabining rivojlanishiga hissa ko'sha olgan rassom Muzahhib ijodiy faoliyati ham tasviriy san'at tarixida alohida ahamiyatga ega. Ma'lum bo'lishicha, XVI asrning 40—70-yillarida Maxmud Muzahhib ijodi gullab-yashnagan. Ayni shu davrda Buxoro tasviriy san'ati ravnaq topdi. Markaziy Osiyo miniatyura va kitobat san'atining markaziga aylandi. Kamoliddin Bexzoddan so'ng nafis tasviriy san'atning davomchilari sifatida Mahmud Muzahhibning faoliyati Buxora san'atkolari ijodida o'z ta'sirini o'tqazdi. Endi bu yerda ishlangan rasmlar ko'chirilgan kitoblar har jihatdan o'zining mukammal mazmuniga ega bo'la boshladi. Musavvirning ijodidagi rang-barang yutuqlar kompozitsion yechimlardagi o'ziga xos nafisliklar uni Hirotda nafis san'at maktabini o'rganganligini ko'rsatadi. Bu rassom tomonidan ishlangan Navoiy portreti

ayni paytda Eronning Mashxad shahridagi Osmoni Quddus majmuasida saqlanmoqda. Portretning qimmatliligi o`z zamonasiga xos an`anaviy miniatyura uslubida yaratilganligidadir. Yana shuni aytish kerakki asar muallifi Alisher Navoiy o`z ko`zi bilan ko`rgan va Kamoliddin Behzod ustozligidagi nafis san`at mifiktabini o`tagan. Maskur portret Navoiy zamonasidan bir oz keyin yaratilgan bo`lsada yuqoridagi dalillar uning haqiqatga yaqinligini aynan ta`kidlab turibdi. Bu obrozda gavdalangan ochiq chehrali qiyofani Behzod va unga o`xshash boshqa rassomlar asarlarida ham uchratish mumkin. Mashhur portretda keksa va nuroniy chehrasidan iliq tabassum balqib turgan buyuk bobomiz Alisher Navoiyga xos o`ta zukkolik hamda donolik yaqqol ko`rinib turubdi. Portretni diqqat bilan kuzatganimizda Navoiyni diqqatli ko`z qarashlari bilan u kimningdir suhbatini tinglayotganday tuyuladi. Noyob qo`lyozma kitoblarga ishlatilgan miniatyura san`atining katta bir qismi Zahiriddin Muhammad Boburning „Boburnoma” kitobiga zarb etilgan. Atoqli adabiyotshunosh olim Hamid Sulaymonovning sayharakatlari evaziga „Boburnoma”ga ishlangan bebahoh miniatyura rasmlar alohida kitob holida nashr qilingan. Unda jamlangan suratlarning birinchisi XVII asr boshlarida ishlangan hushtab shoirona qiyofadagi Zahiriddin Muhammad Bobur siymosidir.

Keyingi davr miniatyurani rassomlari haqida ma'lumotlar juda kam bo`lsada, ular yaratgan asarlar horijiy davlatlardagi ko`pgina muzey va kutubxonalarining qimmatli xazinalari sifatida saqlanib kelmoqda. XVIII—XIX asrlarda ijod qilgan tasviriy san`at ustalaridan Muhammad Muqim, Ahmad Kalla, Ahmad Donish, Mulla Xusniddin, Mulla Ortiq, Rahmatiy, Ibrohim Davron kabi rassomlar faoliyati e'tiborga molikdir. Masalan, O`zbekiston san`atshunoslik institutida saqlanayotgan XIX asr boshlarida Ahmad Donish tomonidan ishlangan «Majnun sahroda» deb atalgan miniatyura o`lkamiz tabiat manzarasini aks ettirishi bilan alohida qimmatga ega. Xuddi shuningdek, XIX asr miniatyura san`atining xarakterini Ahmad Kalla ishlagan rasmlarda ham ko`ramiz. Xulosa qilib aytganda, bu davrda ham O`zbekiston tasviriy san`atida, miniatyura mo'jaz san`ati keng miqyosda taraqqiy etgan.

## 1.2.Miniatyura san'ati haqida ma'lumot

“Miniatyura” so‘zi lotinchadan “minimum” – qizil bo‘yoq degan ma’noni bildiradi. Badiiy miniatyuraning asosiy sohasi kitob miniatyurasi bo‘lib, qadimdan ko‘pgina mamlakatlarda rivojlangan. O‘rta Osiyo, jumladan, O‘zbekiston hududida ham qo‘lyozmalarga ishlangan miniatyuralar mavjud. X-XI asrlarda rivoj topgan miniatyura san’ati XIV-XV asrlarga kelib ancha kamolotga erishdi. XVI-XVII asrlarda esa, o‘z mazmuni, yo‘nali-shi, badiiy uslubiga ega bo‘lgan miniatyura maktablari vujudga keldi.

XV asrning ikkinchi yarmida katta madaniy markazga aylangan Hirotda Alisher Navoiy homiyligida Hirot miniatyura maktabi shakllandi. Bu yerda Kamoliddin Behzod, Ali Muhammad kabi rassomlar va naqqoshlar ijod etdi.XVI asr boshlarida Temuriylar sultanati inqirozi natijasida Hirot madaniy markaz sifatidagi o‘z ahamiyatini yo‘qotib, Tabriz uning o‘rnini egallagach, ko‘pgina san’at ahllari, jumladan, Kamoliddin Behzod ham Tabrizga taklif qilindi. 1522-yilning aprelida u saroy kutubxona-chisi va rassom naqqoshlarga rahbar qilib tayinlandi. Bu yerda unga Sulton Muhammad va atoqli rassom-naqqoshlar ham kelib qo‘-shildi. Asta-sekinlik bilan shu tarzda Tabriz miniatyura maktabi shakllandi.

1548-yilda Safaviylar poy-taxti Tabrizdan Kazvinga ko‘-chirilgach, san’-atkorlar Kazvin va Mashhadga bo‘linib ketdilar. Ular bu shaharda o‘z ijodiy san’atlarini davom ettirib rivojlantirdilar.XVI asrda Sheroz miniatyurasi, Buxoro miniatyura maktabi shuhrat qozondi.Bog‘dod miniatyurasi ham jozibador ranglar bilan jahonga mashhur bo‘ldi. Bu maktablarga mansub miniatyura namunalari London, Parij, Nyu-York, Vashing-ton, Vena, Tehron, Qohira, Istambul, Sankt-Peterburg Moskva, Toshkent, Boku, Dushanbe kutubxona va muzeylaridan joy olgan. Miniatyura san’atda odam obrazi uch usul sintezi tufayli yaratiladi: shartlilik, odob-muomala va realistik detallar. Musavvir o‘z zamonasi mafkurasidan kelib chiqib qanday bo‘lishi lozim bo‘lsa shunday tasvirlaydi.Miniatyuradagi shartlilik obraz yaratish vositalarining eng muhimi hisoblanadi. Pastdan yuqoriga qaratib yaratilgan kompozitsiya ham shartli. Miniaturachi rassomning asosiy vazifasi odil shoh,qahramon, jangchi, go‘zal va hokazolarning tasviriy „ekvivalentini” yaratishdir.

Bu vazifa obrazlar ixtiyorida bo'lgan barcha vozitalar: kompozitsiya, kolorit, etiborli detallardan foydalanish bilan hal qilinadi. Masalan, hukmdor tasviri doimo asosiy o'rinda turadi. Kompozitsiyada uning qiyofasi eng muhimdir, u hajman ajratib qo'yilgan, biroq butun kompozitsiyani qoplab olarli darajada emas. O'lchov va uyg'unlik hissi musavvirga hamisha hamroh. Ideal jangchi esa hamisha urush qurollari bilan tasvirlanadi.

Miniatyurada insonni tasvirlash evolyutsiyasi uning siyosining adabiyotdagi evolyutsiyasi, shuningdek, butun kitob bezash sistemasi evolyutsiyasi bilan bog'liqdir. Turli davrlar miniatyura maktablarini ko'zdan kechirganda, ulardagi aloqadorlikni bilib olish mumkun. XIII asr boshlari XIV asrlarda musavvir shoir singari inson chehrasini go'zallik idealiga muvofiq tasvirlaydi. XV asrda Behzod dahosi tufayli inson tasvirda o'z qimmatiga ega bo'ldi, unga alohida o'rinn beriladigan, mutanosiblik yuzaga keldi, imo-ishorali, turli-tuman bo'ldi, ifodaliroq bo'ldi, boyidi, yangi qahramonlar vujudga keldi, ularning kayfiyati manzara orqali beriladigan bo'ldi.

XVI asrda musavvir matndan yanada uzoqlasha bordi. XVII asrda Yevropa tasviriy san'ati tasirida hajm va perspektivani berishga intilish, personajlar histuyg'ularini belgilash va etnografik xususiyatlarga etiborning kuchayishi va klassik xos belgilardanchetlashish yuz berdi. Masalan, Rustam XVII asr O'stida Osiyo miniatyurasida yo'lbars terisida tasvirlanmagan. XVIII-XIX asrlarda inson tasviri oddiylashadi, suratlar qo'pollashib, ranglar uyg'unligi yo'qoldi. Ko'pincha miniatyurachi musavvir ramziy belgilar orqali badiiy asarda bayon etilgan murakkab mavhum g'oyalarni ifodalaydi. Miniatyura ulkan adabiyot obrazlarining rangin tajassumidir.

### **1.3.Alisher Navoiy rahnomoligidagi mo'jaz san'at to'g'risida.**

XV asrning 2-yarmi tasviriy san'atida Alisher Navoiy tufayli katta burilish bo'ldi. Ayniqsa, Kamoliddin Behzodning ijodiy kamolotga ko'tarilgan payti miniatyura san'ati taraqqiyotining yuksak bosqichga chiqishiga sabab bo'ldi. Avvalgi davrlarga nisbatan bu davrda miniatyura san'atining mavzuiy doirasi kengaydi, faqat

epik, afsonaviy, mifologikdostonlar voqeasi tasvirlanmay, balki zamonaviy asarlar, jonli hayotdan olingan hayotiy epizodlar, tarixiy voqealar va shaxslar portretlari bilan ziynatlandi. Tasviriy san'at, mo'jaz rasmlarning yangi janrlari, tabiat ko'rinishlari, zamona ahllarining bir guruhi va alohida shaxslar obrazlari, kundalik maishiy hayot lavhalarini tasvirlovchi asarlar paydo bo'ldi.

Miniatyura san'atiga xos bo'lgan shartlilikni hisobga olgan holda, Navoiy davrida va uning rahnamoligida Hirotda kamolot cho'qqisiga chiqqan mo'jaz tasviriy san'atni haqiqiy(realistik) yo'nalishdagi san'at deyishga haqlimiz. Miniatyurada tasvir etilgan inson, jonivorlar va tabiat manzaralarini rassomlar nihoyatda nafis chiziqlar ila beraolganlar. Bo'yoqlarning hammasi yuksak did, mahorat bilan tanlangan, ularning uyg'unligiga erishilgan.

## II BOB. Alisher Navoiy hayoti va uning ijodiyoti

Alisher Navoiy 1441-yil 9- fevralda Hirot shaxrida tug'ildi.Uning otasi G'iyosiddin kichkina bir necha qarindoshlari temuriylar saroyiga yaqin turgan amaldor aristokrat, buvilari esa temuriy shahzodalarning enagalari bo'lgan.Alisher go'dakligida temuriy shahzodalar bilan birga tarbiyalandi.To'rt yoshida o'qishga berdilar.Ziyrak va qobiliyatli Alisher maktabdagi boshqa bolalardan ajralib turar va kattalarning diqqatini o'ziga jalg qilar edi.

Ota va ona Alisherning xar tomonlama bilim olish uchun barcha shart-sharoitlarni yaratib berdilar.Alisher zamonasining mashhur muzikashunosi Xo'ja Yusuf Burhondan muzika o'rgana boshladi, hamda tarix, adabiyot,xusnixat va boshqalar bilan jiddiy shug'llana boshladi.Alisher ayniqsa, adabiyotni sevdi.Oila muhiti bolaligidayloq unda adabiyotga zo'r havas tug'dirgan edi. Alisherning otasi marifatparvar kishi va san'at hamda adabiyot muxbirlaridan edi.Alisher badiiy asarlarni o'qish va o'rganish bilan kifoyalanib qolmadi.Uning o'zi ham sherlar yoza boshladi.Navoiyning necha yoshidan boshlab she'r yozganini bilmaymiz. Lekin shunisi ma'lumki, u 10-12 yoshlaridayoq badiiy zavq va didi hamda ilk she'rlari bilan tanilib, katta san'atkorlar va olimlarning diqqatini o'ziga jalg qilgan edi. Alisher otadan yosh yetim qoldi. U marifatparvar hukmdor Abulqosim Bobur qaramog'ida tarbiyalana boshladi va 15 yoshida Sulton Xusayn Bayqaro bilan birga Abulqosim Boburning saroyida xizmat qila boshladi.Abulqosim Bobur 1456-yilda mashxatga jo'nadi.Navoiy va Xusayn Bayqaro xam Abulqosim Bobur bilan Mashhadga borib,o'sha yerda o'qishni davom ettirishadi.1457-yilda Abulqosim Bobur vafot etadi.Navoiy Mashxatda qolib o'qishni davom ettiradi.

Mansab va davlat orzusida yurgan Xusayn mirzo Marvga borib,taxtni egallash uchun kuch to'play boshlaydi.Navoiy Mashxadda Sayid Xasan Ardasher va Kamol Turbatiy kabi davirning mashxur shoirlari bilan tanishadi.

Navoiy taxminan 18-19 yoshlarida Abduraxmon Jomiy bilan tanishadi. Navoiyning bilim saviyasi va adabiy qobilyatidan mammun bo'lgan Jomiy uni xam shogird,xam farzand deb biladi.Ko'p o'tmasdan shogird va ustozning munosabaatlari ikki ulug' shoir va mutaffakkirning do'stligi va xamkorligiga aylandi.Navoiyning otasidan qolgan mol-mulkni musodara qildirgan.Navoiy qattiqmoddiy qiyinchiliklarga duch kelgan. Navoiy shu axvolda Samarqandga keldi.Samarqandda xam tastlabki payitlarda moddiy qiyinchilikda yashadi,lekin shunga qaramay,Samarqand madrasalariga qatnadi,ilm-fan, san'at va adabiyot axli bilan yaqinlashdi,bilim saviyasi istedodi va qobilyati bilan tez orada obro' va etibor qozondi.Navoiy Samarqandda Sakkokiy va boshqa shoirlarning badiiy merosi bilan yaqindan tanishdi.Samarqanddagi madaniy yodigorliklar,ayniqsa Ulug'bek Observatoriyasi va Ulug'bek madrasasi unda katta taassurot qoldirdi.Navoiy keyinchalik bu tassurotlarini o'z asarlarida, jumladan, „Xamsa”sida ifodaladi.

Navoiy Samarqandda 1469-yilga qadar turdi. Toju-taxt orzusida yurgan Xusayn Bayqaroning Xirot taxtini egallab olishi uchun shu vaqlarda qulay bir voqeа yuz berdi.1468-yilningoxirlarida Abusaid G'arbiy Eronni egallahsh uchun jang olib boradi.Jangda Abusaidning qo'shini yengilib,uning o'zi o'ldiriladi. Shu vaqtida Xirot ostonalariga yaqinlashib qolgan Xusayn Bayqaro fursatdan foydalanib, 1469-yil Xirotga kiradi va taxtni egallaydi. Xuddi o'sha yilning aprel oyida Navoiy Xirotga qaytib keladi.Alisher Navoiydek obro'li va tadbirli kishilarga muxtoj bo'lgan Xusayn Bayqaro Navoiyning Xirotga qaytishidan mammun bo'lib,uni saroyga chaqirdi va muxirdorlik vazifasini topshirdi. Bu mansab eng katta mansablardan biri bo'lib,davlatning xar qanday xujjatini muxirdor orqali rasmiylashtirilar, muxirdor muxr bosar va imzo chekar edi. Muxirdorlik vazifasi Navoiyning ijodiy ishlari bilan ko'proq shug'llanishiga imkon bermas edi.Shuning uchun u bu vazifadan istefo berdi. Lekin Xusayn Bayqaro o'z davlat apparatida Navoiydek tadbirli va donishmand kishining bo'lishini zarur deb xisoblab, oradan ko'p vaqt o'tar-o'tmas, Navoiyni amirlik yani vazirlik vazifasiga tayinladi. Xusayn Bayqaro bilan uning o'g'llari

o'rtasidagi nizo-adovatlarni bartaraf qilishga xarakat qilar edi. Ayniqsa u obodonchilik va madaniy xayot soxasida juda katta xizmatlar qildi. Alisher Navoiy o'z atrofiga olimlar,yozuvchilar va san'atning turli soxalaridagi kishilarni jalb etdi.

Mashxur rassom Bexzod,xattot Sulton Ali kabi kishilar xam bevosita Navoiyning xomiyligida kamolga yetganedilar.Navoiy olim,san'atkor va yozuvchilardan unumli ishlashni,o'z qobilyati va imkoniyatlaridan to'g'ri foydalanishni talab qilar edi.U ijodiy ishga beparvolik bilan qarovchi,shoshma-shosharlik bilan yuzaki ish qiliuvchi kishilarni yoqtirmas,ularga qattiq tanbex berar edi.U xam marxamatli,xam talabchan ustoz edi.

Navoiy vazirlik vaqtidan xam,undan keyin xam obodonchilikka katta axamiyat berdi.Podsholikning dastlabki yillarida Xusayn Bayqaro Navoiyning obodonchilik soxasidagi faoliyatini qo'llab-quvvatladi,davlat xazinasidan mablag' ajiratdi. Shu bilan birga, Navoiy obodonchilik ishlariga o'z mablag'ini ayamay sarf etdi.Samarqandda juda muhtojlikda yashagan Navoiy Xirotga qaytganidan keyin, otasidan qolgan mol-mulkga ega bo'ldi,Xusayn Bayqaro unga Xirot,Sabzavor va boshqa joylardan katta mulk ajiratib berdi.Navoiy ko'pchilik asarlarni o'zbek tilida yozib,bu tilning badiiy durdonalar yaratish uchun katta imkoniyatlarga ega ekanini ko'rsatib berdi, o'zbek yozuvchilari oldiga o'z ona tilida ijod etish vazifasini qo'ydi.ularga bu yo'lda xar jixattan yordam berdi.Shu bilan birga,u fo'rs – tojik tilini xam o'z ona tilidek sevdi,bu tilda xam ajoyib asarlar yaratdi va fors - tojik shoirlariga katta ehtirom bilan yondashdi,ular bilan ijodiy xamkorlik qildi, arab tili va uning leksikasi bilan shug'llandi.

Navoiy dastlab lirk sherlari bilan keng shuhrat qozona boshladidi.1465 – 66 yillardayoq Navoiyning kitobxonlari uning she'rlarini to'plab,devontuzadilar.Navoiyning o'zi esa 1470-yilning boshlarida birinchi devoni „Badoyul bidoya”ni tuzdi.Keyinroq,1476 – 1483 yillar oraqsida, ikkinchi devonni „Navodirun-nixoya”ni yaratdi.

Lirik turda katta tajriba orttirib, shuhrat qozongan Navoiy, endi o'zbek tilida yirik epik asarlar yaratish vazifasini o'z oldiga qo'ydi. Vazirlik mansabidan istefo bergenidan keyin „Xamsa” yozishga tayyorlana boshladi. U oz vaqt davomida „Xamsa” uchun kerakli barcha materiallarni to'pladi. Nizomiy, Xisrav Dexlaviy va boshqa shoirlarning „Xamsa”si yoki „Xamsa”sikli bo'yicha yaratga aloxida dostonlarini, xalq og'zaki ijodi xamda tarix asarlarini mukammal o'rganib chiqdi va „Xamsa” yozish fikrini Abduraxmon Jomiyga aytdi. Jomiy uning maqsadi va rejalarini maqulladi, maslaxatlar berdi. Navoiy 148-yilda „Xamsa”ni yozishga kirishdi. U „Xamsa”ni yozish uchun juda qisqa muddat – ikki yildan sal ko'proq vaqt sarf qildi. 1483-yilda „Xamsa”ning birinchi dostoni „Xayratul – abror”, 1484-yilda „Farxod va Shirin”, „Layli va Majnun”, „Sabai sayyor”, 1485-yilda „Saddi Iskandariy” dostonlarini yozdi. Bu dostonlarida u davrning juda muxim muommolarini qo'ydi, o'rta asrning ilg'or mutaffakiri sifatida progressiv fikr-qarashlarini ilgari surdi.

1501-yilning 3 yanvarida Alisher Navoiy vafot etdi. Butun Xirot qattiq motam tutdi. Musubatlari xabar tezda butun Xursonga, Movvarunnaxirga va boshqa joylarga borib yetdi.

### **Navoiy Lirikasi.**

Alisher Navoiy ulug' lirk shoirdir. U Saddiy, Xofiz, Xisrav Dexlaviy va Abduraxmon Jomiy kabi mashxur sharq lirk shoirlarining, Xorazimi, Sayfi Saroiy, Atoiy, Sakkokiy va Lutfiy kabi o'zbek dunyoviy adabiyoti namoyondalarining eng yaxshi adabiy tradsiyalarini davom ettirdi va rivojlantirdi, xalq poetik ijodiyotining g'oyaviy-badiiy boyliklaridan unumli foydalandi. Badiiy adabiyotning xayotga, jamiyat extiyojlariga xizmat qilish uchun kurashgan Navoiy lirik poeziyaning tematikasi, g'oyaviy motivlari va obrzlari sistemasini boyitdi, takomillashtirdi.

Navoiy juda katta va boy lirik xazina yaratib qoldirdi. Bu lirik xazinaning asosiy 45 ming misraga yaqin o'zbek tilidagi sherlarini o'z ichiga olgan „Xazoyinul maoniy” va 12 ming misradan ziyod fors-tojik tilidagi sherlarni

o‘z ichiga olgan „Devonni Foniy”, fors-tojik tildagi 6 falsafiy qasidadan iborat.Navoiy Ali Yazdiy nazariga tushgan, Mavlono Lutfiy yosh shoir iste’dodiga yuqori baho bergen, Kamol Turbatiy e’tirofini qozongan.

Sayyid Hasan Ardashev, Pahlavon Muhammad kabi ustozlardan ta’lim olgan, Abdurahmon Jomiy bilan ijodiy hamkorlikda bo‘lgan. Navoiy 1469 yilgacha temuriylar orasidagi ichki nizolar sababli Hirotdan yiroqroqda yashagan.Husayn Boyqaro Xuroson taxtiga o‘tirgach (1469), Navoiy hayoti va ijodida yangi bosqich boshlanadi, muhrdorlik (1469) mansabiga, vazirlik (1472) va Astrobod hokimligi (1487)ga tayinlanadi. 1480—1500 yillar mobaynida o‘z mablag‘lari hisobidan bir necha madrasa, 40 rabot (safardagi yo‘lovchilar to‘xtab o‘tish joyi), 17 masjid, 10 xonaqoh, 9 hammom, 9 ko‘prik, 20 ta hovuz qudiradi. Husayn Boyqaro Alisher Navoiyga „muqarrabi hazrati sultoniy“ („sulton hazratlarining eng yaqin kishisi“) degan unvonni beradi. Unga ko‘ra Navoiy davlatning barcha ishlariga aralasha olardi.Alisher Navoiy tarjimai holi o‘z davrida Xondamir, Vosify, Husayn Boyqaro, Bobur kabi tarixchi va davlat arboblarining asarlarida aks etgan. O‘zbek olimlari Ozod Sharafiddinov, V.Mahmud, Oybek, Yahyo G‘ulomov, Izzat Sulton, A.Zohidov, V.Abdullaev, A.Qayumov, S.G‘anieva v.b. Navoiyning hayot yo‘li haqida asarlar yaratishgan. 1947-yilda Komil Yormatov «Alisher Navoiy» filmini suratga oldi.

## **2.1.Alisher Navoiy mavzusida ijod qilgan rassomlar**

Basharov Qutlug` 1925.31.12 (2004.20.01)- O‘zbekiston xalq rassomi (1975). 1950 yillardan Toshkentda O‘zbekiston BA faxriy a’zosi (1997). P.Benkov nomidagi Respublika rassomlik bilim yurtida ta’lim olgan (1952-56), Toshkent teatr va rassomlik san’ati institutini tugatgan (1982). Asosan linogravyura, litografiya, akvarel usulida ishlagan dastgoh va kitob grafikasi asarlari bilan tanilgan. Dastgoh grafikasiga mansub triptixlari, avtolitografiya turkumlari, flomaster bilan qog‘ozga ishlagan «O‘zbekiston musiqasi va raqlari» turkumi (1973), portretlar (“Alisher Navoiy”, 1968; “Abu Rayhon Beruniy”, 1972; “Akmal Ikromov” va boshqalar.), rangli gravyura turkumlari (“Insonga tinchlik kerak”, 1983; “Sharq ayollari”, 1984)

bor. Rangtasvirda ham samarali ijod qildi: "Navoiyning hayoti va ijodi" (1965),"Amir Temur lashkarboshi", ("Amir Temur portreti" va boshqa., 1996). Hamza nomidagi Davlat mukofati laureti (1979)."El-yurt hurmati" ordeni bilan mukofatlangan (1999).Teshikqopqa qabristoniga dafn etilgan.

Navoiy ijodidan kuch olgan rassom - uning asarlari betakror mahorat va iste'doddan so'zlaydi. Go'zallikka oshno etadi. Taniqli musavvir,O'zbekiston xalq rassomi Chingiz Ahmarovning ijod namunalarini ko'rib, zavq olgan har bir tomoshabin ko'nglidan ayni fikrlarning kechishi shubhasiz. O'zbekiston davlat san'at muzeyida "Navoiydan kuch olgan musavvir" deb nomlangan ko'rgazmada atoqli rassom ijod namunalaridan bahramand bo'lish mumkin. Muzey direktori V.Fayzieva va boshqalar milliy tasviri san'atimiz rivojiga ulkan hissa qo'shgan rassomlarning ijodiy maktabi, faoliyatini imukammal o'rghanish, badiiy-tarbiyaviy ahamiyatini yosh avlodga yetkazishda doimiy e'tibor qaratilayotganini ta'kidladi.

CH.Ahmarov yurtimizning ko'hna shaharlaridagi qadimiy me'moriy obidalar bilan tanishib, tarix, adabiyot, tasviriylar va amaliy san'at merosini puxta o'rghanishga astoydil intilgan. Go'zallikning asl mohiyati, uning sirlarini anglashga bo'lган intilish musavviri Navoiy ijodiga chuqurroq kirib borishga undagan. Mo'yqalam sohibi asarlaridagi milliy ruhning ustuvorligi ham uning Navoiy ijodiga mehri, cheksiz ehtiromi sabablidir. Rassom yaratgan betakror suratlar, pannolar, monumental ishlar bugun yurtimiz va xorijdagi muzeylar, teatrbinolari, ilmiy-ma'rifiymuassasalar, Toshkent metropolitenining Alisher Navoiy nomidagi bekatini bezab turibdi.

Chingiz Ahmarov asarlari, mo'jaz chizgilari, turli rasmlari tasviriylar san'at ixlosmandalari tomonidan chuqur qadrlanadi, – deydi O'zbekiston xalq rassomi JavlonUmarbekov. – Men ham uning ijodidan ilhomlanganman. Ustoz asarlari har bir insonni ezgulikka, oljanoblikka, go'zallikka oshno etishi bilan qimmatlidir. Ko'rgazmada rassomning "MukarramaTurg'unboevaportreti", "Zulfiyaxonim", "Navoiyshogirdlaribilan", "Onavabola", "Samarqandlikqiz", "Raqqosa" kabi ko'plab asarlaridan bahramand bo'lish mumkin.

## **2.2.Alisher Navoiy „Xamsa”siga bag’ishlangan mavzuning tanlanishi**

Bugungi mustaqil O’zbekiston diyorida adabiyot, san’at sohalariga e’tibor qaratilmoqda.Xuddi shi jihatdan yangi ijod na’munalari yuzaga kelmoqda. Shu o’rinda men ham o’z bitiruv himoya ishim mavzusini Alisher Navoiy „Xamsa”siga bag’ishladim. Bilamizki, Navoiy shaxsi va ijodi tunganmas xazina, uni o’rgangan sari o’ziga chorlayveradi, yangi qirralari nomoyon bo’laveradi. Men mavzuimni turkey tilida ilk bor „Xamsa” bitgan buyuk zot asariga illyustratsiyalar chizish maqsadida tanladim. Navoiy va „Xamsa” mavzusiga mana necha asrlardan buyon ijodkorlar asarlar yaratadilar. Xuddi shu ishlar ta’biri joiz bo’lsa davomi o’laroq men uchun ham shu mavzu ahamiyatli va qolaversa ardoqlidir. Men Navoiy „Xamsa”siga bag’ishlab surat ishlashni o’z xohishimga ko’ra tanladim va bu yo’lda ustozlarimdan maslahatlar oldim, o’tmish asarlar namunalaridan turli ma’lumotlar olib mavzuimni chuqurroq, teranroq his etishga intildim.

### **III BOB. Bitiruv himoya ishining amaliy ish jarayoni**

Bitiruv himoya ishimda men amaliy jarayonlarni bosqichma-bosqich o’z tartibida bajardim. Tanlangan mavzu va uning mahiyatini bilish muhim xisoblanadi. Shuninguchun men Naviy „Xamsa”sini o’qib chiqdim. Undagi har bir dostonni sinchkovlik bilan o’rganishga, eslab qolishga xarakat qildim. Masalan, „Hayrat ul-abror” dostonidagi imom va shoxning suxbati, sher va durroj, Hotamtoy kabi qismlarini va boshqa mavzularini ham o’qidim. „Sabbai sayyor”da Baxromning sarguzashtlarini, Diloromning hayotiy vaziyatlarini, Baxromning qanday qilib Go’r bo’lishini bilib oldim. Xuddi shunday „Layli va Majnun”, „Farxod va Shirin”, „Saddi Iskandariy” dostonlarini ham o’qib o’rganib o’z ma’lumotlarimni ko’paytirdim va shu tarzda bitiruv ximoya ishimning amaliy bosqichlariga kirishdim.

#### **3.1.Qalamda va rangda eskiz**

Mavzuimni o’qib chiqib unga eskiz boshladim. O’qish jarayonida avval dostonning o’zimga yoqqan qismini qog’ozga yozdim. Xuddi shu tarzda hamma dostonning kompozitsiya qilishim uchun ma’qul qismlarini yozdim. So’ngra turli kattalikdagi katakchalarga figuralarni tasavvurimdagidek joylashtirdim. Eskizlar ustozlarim tomonidan ma’qullangach ularni kattaroq ya’ni o’zim tanlagan aniq formatimga joylashtirdim(format 34x22, kompozitsiya joylashuvi 30x 19). Men katta format, turli xil eskizlar tayyorladim. Eskizlar ustozlarim tomonidan tekshirilib, o’zgartirish yoki qo’shimchalar kiritilishi tushuntirildi. So’ngra „Xamsa” dostoniga chizgan beshta mavzuimning xar biridan bittasi tanlab olindi va ularning haqiqiy chizmalariga o’tildi.

Haqiqiy chizmalar tayyor bo’lgach ularning rangdagi eskizlarini boshladim. Rangdagi eskizlarni kichik hajimda tayyorladim. Men rangdagi eskiz uchun guash bo’yog’ini ishlatdim. Shunday qilib dostonlarga rangdagi kichik eskizlar qilinib bo’lindi.

### **3.2.Material tanlash va uni tayyorlash**

Eskizlar bilan bog'liq jarayon tugagach endi navbat bitiruv ximoya ishimning boshlanishi uchun material tanlashga keldi.Bunda men pannodan foydalanishni ma'qul bildim. 34x22 hajmdagi formatni tanladim.Pannolar beshta bo'lib xar birining yuzasini bo'yashga kirishdim.Bo'yash uchun men moyli bo'yoqning to'q qizil rangidan foydalandim. Bundan tashqari men suyultiruvchi qora moy bo'yoq(tasovvurimdagি rangni hosil qilish uchun kerak), cho'tka kabilardan foydalandim. Rang tayyorlash uchun to'q qizil rangga qora suyultirib qo'shdim va ranglar bir biriga yaxshi kirishgunga qadar aralashterdim .Panno yuzasiga rangni buyadim.Birinchi qavat bir kunda quridi keyin ikkinchi qavatni buyadim. Bir kun davomida ikkinchi qavat ham quridi . Keyin lakashga kerishdim (lakashdan avval bo'yoqning quruganligini tekshirish lozim, rangda qo'l izi qolmasligi kerak ,agar shu holat bo'lsa qurishni kutish kerak). Ob-havo o'ta salqinligi va lakni quyuq bo'yaganligi sababli lak deyarli to'rt kunda quridi.

Lakda ham barmoq izi qolmaganligini aniq bilib olganimdan so'ng lakni panno yuzasidan qirib tashlash bosqichiga o'tdim .Bunda men piska va qum qog'ozdan foydalandim . Bu jarayon ham uzoq davom etadi, chunki bo'yagan panno yuzasida lok qolishi mumkin emas. Bo'yagan panno yuzasi silliq va tekis bo'lgach, unga pemzadan kukun qildim, panno yuzasini kukun bilan qopladir. Shu bilan material tayyorlash jarayoni o'z nihoyasiga yetdi .Endi navbat tayyor panno yuzasiga kompozitsianing haqiqiy holatini o'tkazishga yetib keldi.

### **3.3. Bitiruv himoya ishimning haqiqiy jarayonini boshlash va yakunlash**

Bitiruv himoya ishimning haqiqiy aniq, holatini yaratishni boshladim. Birinchi ishim qalamdagi holati tayyor bo'lgan illyustratsiyalarimning har birini kalkaga ko'chirish bo'ldi.Ishlash uchun tayyor panno yuzasiga qalamdagi holati tushgan kalkani qo'ydim. Siljib yoki surilmasligi uchun kalkani pannoga yopishtirib qo'ydim(skoch bilan), keyin oddiy qalamda chizganlarimni ustidan qattiqroq qilib chizib chiqdim. Qattiqroq chizish orqali kukunli pannoga chizganlarimni aniqroq tushishini ta'minlashdir.

Beshta pannoga beshta illyustratsiyani o'tkazib bo'lgach, kalkani oldim.Keyin chiziqlarni oq temperada chegaraladim. Kalkadan o'tgan chiziqlar xira, uning ustigaishni turlash jarayonida rang chetga chiqib ketishi yoki xira chiziqlar o'chishi ham mumkin. Shuning uchun oqda(boshqa rangda bo'lishi ham mumkin) chegaraladim.Endigi bosqich: beshta pannodagi illyustratsiyalarni turlash(yoki bo'yash).

„Shoh va imomning hammomdagi suhbati” tasvirlangan illyustratsiyaning yer qismiga rang tayyorlashda oq va jigar rang temperani aralashtirdim, faqat ozroq jigarrang ishlatdim. Chunki men och rang hosil qilmoqchi bo'lgandim. Odamlarning belidagi sochig'iuchun biriga oq,izumurid, ohradan yoki shu ranglar ustiga qizil qo'shish orqali rang tayyorladim.Shundan keyin hammomning interyer qismini naqshlar bilan bezatdim.Figuralarni odam tanasi ranggida bo'yadim. Yer va gumbaz qismlarida yedirma hasil qildim. Eshik ranggi va tepadagi figuraning kiyim ranggini o'zgartirdim. Eshikni naqshlar bilan bezadim.Figuralarning tanalarini siyoh qalam qildim.So'ng portret qismini ishladim.Shundan so'ng dostonning nomini yozdim. Eski o'zbek yozuvida yozilgan doston nomini bo'yash uchun qizil, qora, oxra va biroz oq temperadan foydalandim. Yozuvning fon qismiga oxra, qora, umra ranglarni ishlatdim. Ishni yig'ish ushun qalin resvider bilan chizdim.So'ngra ingichka resviderda chizdim. Keyin yana qalin resviderda chizdim.

Farhodning yaman qaroqchilari bilan janggi tasvirlangan dostonda avval suv qismini bo'yadim.Keyin figuralarni bo'yab chiqdim. Farhodning ustki kiyimi uchun qizil va oq kabi ranglarni ishlatdim. Kema yelkani uchun qora, jigarrang, qizil, oq ranglardan foydalandim.Kemalarni panno ranggida qoldirdim.Ammo bu ishning sifatini oshirmaganligi sababli farhod kemasi ucgun oxra, oq, ozroq qora ranglarni ishlatdim. Bayroq uchun esa oq va izumuritdan foydalandim. Yongan kema ishning sifatini oshirmagani uchun uning o'rniga boshqa qayiq chizdim.Figuralarning portretlarini ishladim.Orolni sezdirish uchun suv shaklini ishladim.Qaroqchining kiyimi uchun oq, oxra, jigarrang, izumuritlarni ishlatdim.Shundan so'ng dostonning nomini yozdim. Eski o'zbek yozuvida yozilgan doston nomini bo'yash uchun qizil, qora, oxra va biroz oq temperadan foydalandim. Yozuvning fon qismiga oxra, qora,

umra ranglarni ishlatdim. Ishni yig'ish ushun qalin resvider bilan chizdim. So'ngra ingichka resviderda chizdim. Keyin yana qalin resviderda chizdim.

„Xamsa”ning uchunchi dostoni „Layli va Majnun” kompozatsiyasining yer qismi uchun oq, oxra(juda kam) ishlatdim. Tepadagi yer qismi uchun oq, juda kam miqdorda izumurit ishlatdim. Laylining kiyimi uchun qizil, oq izumurit ranglardan foydalandim. Tayyor rangga izumurit qo'shib enaga obrazining kiyimini bo'yadim. Qolgan qizlarning kiyimi uchun sariq, och izumurit kabi ranglardan foydalandim. Jigarrang bo'gan o'tovning ranggi va uning ichidagi yarmi ko'ringan qizning xolati ishga yaxshi sifat bermaganligi sababli ularni o'zgartirdim. Layli o'tovini oq rangga bo'yadim. Hayvonlarning ranggi uchun oq, oxra, ozroq jigarrangdan foydalandim. Daraxtlarni oq, izumurit, jigarrang orqali bo'yadim. Laylining o'tovi oq rang bo'lgani uchun ishga sifati kamligini sifatga olib uni oq, kraplak, jigarrang, pushti ranglar bilan o'zgartirdim. O'tovga naqshlar chizdim. Suv ranggi uchun galubayaFTS, oq, ozroq qora ranglardan foydalandim. O'tovlardagi ko'rpacgalarning chetlariga naqishlar ishladim. Bu kompozitsyaning tag'li, yerli qismlarini ishlab chiqdim. Shundan so'ng figuralarning portretlarini ishladim. Orolni sezdirish uchun suv shaklini ishladim. Qaroqchining kiyimi uchun oq, oxra, jigarrang, izumuritlarni ishlatdim. Shundan so'ng dostonning nomini yozdim. Eski o'zbek yozuvida yozilgan doston nomini bo'yash uchun qizil, qora, oxra va biroz oq temperadan foydalandim. Yozuvning fon qismiga oxra, qora, umra ranglarni ishlatdim. Ishni yig'ish ushun qalin resvider bilan chizdim. So'ngra ingichka resviderda chizdim. Keyin yana qalin resviderda chizdim.

Chinor kovagida Bahrom va Dilorom kompozitsiyasini turlashga kirishdim. Baxrmning kiyimi uchun oq, izumurit, oxra ranglardan foydalandim. Dilorom kiyimi uchun qizil, oq, sariq, oxradan foydalandim. Oshpaz kiyimi uchun oxra, oq, sariq, jigarrang ishlatdim. Kompozitsyaning yer qismi uchun izumurit, oq, oxra(ko'proq)lardan foydalandim. Shu ranglarga ko'proq goluboyaFTS va ozroq qora qo'shib suvni bo'yadim. Shu rangga oq, izumurit qo'shib chinor ranggini bo'yadim. Chinor tanasi uchun oq, ozroq izumuritdan foydalandim. Chinor kovagi uchun shu rang ustiga jigarrang, to'q qizil qo'shib bo'yadim. Dutor chalgar qiz

kiyimi uchun oq, qizil, sariq ranglardan foydalandim. Suvlarning atrofiga har xil gullar va turli kattalikdagi toshlar qo'ydym. Qozon ranggi uchun qora, to'q qizil, biroz oqdan foydalandim. Keyin chinor barglarini chizib ularni bo'yab chiqdim. Bahrom va diloromning kiyimlari ishning sifatini oshirmaganligi va boshqa figuralardan ajralib turmaganligi uchun ularni o'zgartirdim. Qizlarning o'tirishi uchun gilamchalar chizib chiqdim. Barcha figuralarni va qolgan narsalarni ham siyoh qalam qildim. So'ngra figuralarning portretlarini ishladim. Orolni sezdirish uchun suv shaklini ishladim. Qaroqchining kiyimi uchun oq, oxra, jigarrang, izumuritlarni ishlatdim. Shundan so'ng dostonning nomini yozdim. Eski o'zbek yozuvida yozilgan doston nomini bo'yash uchun qizil, qora, oxra va biroz oq temperadan foydalandim. Yozuvning fon qismiga oxra, qora, umra ranglarni ishlatdim. Ishni yig'ish ushun qalin resvider bilan chizdim. So'ngra ingichka resviderda chizdim. Keyin yana qalin resviderda chizdim.

„Saddi Iskandariy”ning Hindistonga janggi kompozitsiyasini turlashga kirishdim. Bunda men yer uchun oq, oxra, juda kam miqdorda qora rang ishlatdim va shu rangni ochlashtirib darvozani bo'yadim. Bu rangga oq, sariq qo'shib figuralarni kiyimlarini bo'yab chiqdim. Daraxt ranggi uchun shu rangga izumurit qo'shdim. Saddi Iskandariy kiyimini avval ko'k rangga bo'yagan edim. Ishning sifati oshmaganligi uchun qizil rangga o'zgartirdim. Otning ranggi uchun qizil, qora kabilardan foydalandim. Suv ranggida oq, ko'k ranglarni ishlatdim. So'ngra otlarning yoniga yana ot qo'shdim. Ularningsovutlarini chizdim. Darvozani turli naqishlar bilan bezatdim. Yuqoridagi figuralarning kiyimi uchun izumurit, oq, jigarrang, ultramarine, qizil kabi ranglardan foydalandim. Ot ranggi ishning sifatini oshirishga xizat qilmaganligi uchun oxra, yashil kabi ranglar bilan uni o'zgartirdim. Yer ranggi ishni kirlashgan holatga olib kelgani uchun uni o'zgartirdim. Oq, izumurit, ozroq oxra qo'shib sovuq rang hosil qildim va yer qismini bo'yadim. Yuqoridagi sariq kiyimli figuraning ranggi asosiy qaxramonni ko'rishga halaqit bergenligi uchun uning ranggini bosiqroq qilib o'zgartirdim. So'ngra devor va darvozaga resvider chizdim. Figuralar va otlarning chetlarini siyoh qalam qildim. So'ngra figuralarning portretlarini ishladim. Orolni sezdirish uchun suv shaklini ishladim. Qaroqchining

kiyimi uchun oq, oxra, jigarrang, izumuritlarni ishlatdim. Shundan so'ng dostonning nomini yozdim. Eski o'zbek yozuvida yozilgan doston nomini bo'yash uchun qizil, qora, oxra va biroz oq temperadan foydalandim. Yozuvning fon qismiga oxra, qora, umra ranglarni ishlatdim. Ishni yig'ish ushun qalin resvider bilan chizdim. So'ngra ingichka resviderda chizdim. Keyin yana qalin resviderda chizdim.

## XULOSA

Mustaqqilik davrida kelajagimiz bo'lgan yoshlarni munosib insonlar bo'lib yetishishida barcha ilm fan va san'at arboblari o'zlarining ijod faoliyatlariga yangicha tus, yangicha mohiyat berib mehnat qila boshladilar. Maqsad esa bitta. Yangi avlod, komil insonni tarbiyalash va tezlikda taraqqiy etib borayotgan turmush tarzida o'z o'rnini munosib egallashida yordam berishdir. Tabiiyki, milliy qadriyatlarni, tarixni bilmay turib millat ravnaqiga erishib bo'lmaydi. Mana shunday muammolarni bartaraf etishda miniatyura asarlarini idrok etish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli men ham o'z bitiruv malakaviy himoya ishimda bugungi O'zbekiston miniatyura san'ati namunasini yaratishga xarakat qildim. Ma'lumki miniatyura ajdodlarimiz adabiy merosini qog'ozda tasvirini yaratish san'atidir. Shununing uchun bitiruv himoya ishimni Alisher Navoiy „Xamsa” dostonlariga bog'ishlab kompozitsiyalar yaratdim. Bunda men „Xamsa” dostonlarning har biriga bittadan kompozitsiya ishладим. Izlanishlarim davomida miniatyuraning tarixiy namunalariga etiborimni qaratdim. Bu jarayonlarda shunday xulosaga keldimki miniatyura san'ati ijodkordan o'ta noziklikni, badiiy va estetik didning yuksak bo'lishini nafis chizgilar ila asar yaratishni talab qilar ekan. Miniatyura san'ati jozibali va qiziqlarliligi bilan nafaqat o'zlashtirishda, hatto uni idrok qila bilishda ham muayan tayyorgarlikni talab qilar ekan. Miniatyurada ishlangan rasmlar tamoshabinga juda katta badiiy estetik ta'sir etib u nafosat olamiga yetaklaydi. Miniatyurada faqatgina narsa va voqyealar emas, balki musavvirning ichki kechinmalari ham ifodalanadi.

Miniatyurada rasm ishlashning o'ziga xos tamonlari bor. Unda rang pespektivasi, chiziqli pespektiva, havo pespektivalaridan foydalanilmaydi. O'rta asrlar miniatyura san'ati bilan hozirgi davr zamonaviy miniatyura san'atining, ishlanishida farq qiladi. Zamonaviy miniatyura san'atida odamlar tasviridagi kiyimlarda turli tasvirlar va bezaklar berilishi, jim-jimodorlik kuzatiladi. Xulosa qilib aytganda, miniatyurada rasmlari ishlash, va uni o'rganish tabiat go'zalliklarini his qilishga, hamda yoshlarda estetik didni rivojlanishida ahamiyati katta. Shunigdek yoshlarda vatanparvarlik xissini uyg'otib, ajdodlar merosiga milliy g'urur bilan nazar tashlashlarida muhim omil bo'la oladi. Bu esa o'z navbatida yosh

avlodning o'tmishga to'g'ri munosabat bildirib, kelajakka ildam qadam tashlashlariga yordam beradi. Bugungi kunda, O'zbekiston diyorini yanada ko'rkar va chiroyli bo'lishida, shuningdek kelajak avlodni barkamol insonlar bo'lib, yetishishida, miniatyura san'atining o'z o'rni bor.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Sharq miniatyurasi va adabiyoti. Inson obrazining tadriji. E.A.Polyakova, Z.I.Rahimova, Toshkent 1987 G'ofur G'ulom nomidagi „Adabiyot va san'at” nashriyoti.
2. Alisher Navoiy asarlariga ishlangan rasimlar XV-XIX asrlar. Hamid Sulaymon, Fozila Sulaymon. Toshkent 1982 „Fan” nashriyoti.
3. S.F.Abdurasulov. Tasviriy san'at va uni o'qitish metodikasi. T., “ILM – ZIYO”, 2011
4. P. P. Shabaratov. Miniatur.T. “Iqtisod -moliya” nashriyoti. 2011
5. G'. M. Abduraxmonov. Tasviriy san'at kompozisiyasi. T., 1996
6. D. A. Nazilov. Kompozisiya asoslari. T., “Yangi asr avlodi”, 2009
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 16-avgustdagি PQ 3219 sonli “O'zbekiston Badiiy akademiyasi faoliyatini rivojlantirish va yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi qarori

Internet saytlari.

1. [www.Wikipedia.org](http://www.Wikipedia.org)
2. [www.KH-davron.uz](http://www.KH-davron.uz)
3. [www.Muloqot.uz](http://www.Muloqot.uz)
4. [www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz)
5. [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)
6. [www.Ziyonet.uz](http://www.Ziyonet.uz)
7. [www.nbgf.intal.uz](http://www.nbgf.intal.uz)

## ATAMALAR - GLOSSARY

**Eskiz**-ishning xomaki holati.

**Illyustratsiya**-badiiy asar mazmuniga moslab tasvir ishlash.

**Izumurid, oxra, umbra, kraplak, golubayaFTS, ultramarin-turli** rangdagi tempera bo'yoqlari.

**Kalka**-tasvirni ko'chiruvchi qog'oz.

**Miniatyura**-nafis ishlangan kichik hajmdagi tasviriy san'at turi.

**Panno**-yog'ochdan yasalgan tasvir tushiriladigan miniatyura uchun material.

**Pemza**-tasvirni tushirish uchun kukun hosil qiluvchi xomashyo.

**Tempera**-miniatyura rang bo'yog'i.

**Turlash**-ishni bo'yash jarayono.

**Cho'tka**-mo'y qalam.

**Qalam** – chizish, bo'yash va chizmachilikka mo'ljallangan buyum yoki yozuv quroli, ichi loyga o'xshash grafitli moddadan iborat bo'lgan yog'och tayoq, ichi ko'mir, qo'rg'oshin, grafit yoki quruq presslangan bo'yoqlardan (rangli qalamlar) iborat bo'lishi mumkin, odatda ustki qismi yog'och yoki metaldan bo'ladi.

**Rasm** – tugallangan (eskiz va etyuddan farqli) va mustaqil badiiy ma'noga ega tasviriy san'at asari.

**Bo'yoq** – rang bo'yash vositalari tarkibining umumiy nomi, maishiy sohada foydalanishga mo'ljallangan, predmetlarga surtilganda yoki bo'ktirilganda u yoki bu rangni beradi. Kimyoviy tarkibiga ko'ra pigmentlar va ulardan tayyorlangan bo'yoqlar mineral (noorganik tuzlar yoki metal oksidlari) va organik (o'simlik va hayvonlarning birlashishi).

**Lak** – (nem.lack, fran.laquer surtish, qoplash) 1. Turli eritgichlarda suyuq yoki yarim suyuq holatgacha bo’lgan yelim eritmasi. Lakni surtish qurigan rasm yuzasiga yupqa qatlam bilan, himoya qatlamini yaratish uchun surtiladi. Quriganidan so’ng laklar yaltiroq qattiq parda bilan qandaydir tekislikni qoplaydi, fizik kimyoviy ta’sirlarga qarshi tura oladi.

**Chiziq** – (lot. Linea – zig’ir ip). Tasviriy san’at va rassomchilikda ifodali tasviriy vosita. Chiziq, grafik yoki bo’yoq vositalari bilan tasviriy yuzaga chizish orqali yuzaga keladi. Chiziq doim qalinlik, farqlilik va uslubga ega bo’ladi. Tasviriy san’atda chegara, biror-bir yuza va o’rab turuvchi muhit konturi hisoblanadi.

**Xomaki reja** – rassom tomonidan tez bajarilgan, katta bo’lmagan o’lchamdagি rassomlik, grafika va haykaltaroshlik san’ati asari.

**Fon** – (frans. – chuqurlik, tub) tasviriy san`atda natura, manzara, obyektning orqadagi ko`rinishi, orqa plani tushuniladi. Bunda fon odatda neytral holda, yoki ba’zi bir hollarda oddiy tasvirga ega bo`lgan holda joylashadi.

## ILLYUSTRATSIYALAR

















































